



Differential characteristics of women's speech

Gulrukhsoroy ABDULLAYEVA¹

Kokand State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

gender linguistics,
language,
speech,
grammatical,
lexical,
stylistic errors.

ABSTRACT

This article analyzed the concept of gender linguistics, features of women's speech in different situations, and aspects of their speech different from men's speech. Differences in women's speech based on age, era, profession, education, place of residence, and style were highlighted.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp615-618>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ayollar nutqining differensial xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

genderlingvistikasi,
til,
nutq,
grammatik,
leksik,
uslubiy xatolar.

Ushbu maqolada genderlingvistika tushunchasi, ayollar nutqining turli vaziyatlarga xos xususiyatlari, ular nutqining erkaklar nutqidan farqli jihatlari tahlil etildi. Ayollar nutqining yosh, davr, kasb, ma'lumoti, yashash joyi va tarzi kabi jihatlari orqali farqlanishi yoritib berildi.

Дифференциальные характеристики женской речи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

гендерная лингвистика,
язык,
речь,
грамматические,
лексические,
стилистические ошибки.

В данной статье проанализированы понятия гендерной лингвистики, особенности женской речи в разных ситуациях, аспекты их речи, отличные от мужской речи. Выделены различия женской речи по таким аспектам, как возраст, эпоха, профессия, образование, место жительства и стиль.

¹ Doctoral student, Kokand State Pedagogical Institute.

KIRISH

Inson paydo bo'libdiki, til uning muloqotiga xizmat qiladi. Insonning jamiyatdagi o'rnini til belgilaydi. Tilning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot yo'q, hozirgacha tadqiq etib kelinmoqda. Tilning o'rganilish sohalari majmuyi tilshunoslik hisoblanadi. Hozirgi zamon tilshunosligi bir qancha zamonaviy yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Xususan, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, paralingvistika, genderlingvistikasi shular jumlasidandir.

Hozirgi zamon tilshunosligida "genderlingvistika" tushunchasi keng qo'llanilmoqda, ushbu tushuncha tilning "jins"ga mos tarzda tafavvutlanishini bildirib, erkaklar va ayollar til lug'at tarkibi, nutqining o'ziga xosligini anglatadi. Genderlingvistika tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlardan biri hisoblanib, dastlab "gender" atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Hayotning turli jabhalarida erkak va ayollarning o'ziga xos qirralari namayon bo'lganidek, tilshunoslikka ham bu sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan nutqning alohida turi – gender nutqi haqida gapirish o'rinlidir. Erkaklar nutqiga xos xususiyatlar – dangallik, qat'iylik, turli xil emotivlarning kamligi, qarg'ish so'zlardan deyarli foydalanmaslik kabilar xos bo'lsa, ayollardagi noziklig-u latofat ulaning nutqiga ham ko'chgan deb aytish mumkin.

METOD VA METODOLOGIYA

Ayollar nutqini tahlil etadigan bo'lsak, ularning yoshi, yashash tarzi, sharoiti, ma'lumoti, jamiyatda tutgan mavqeyi kabi bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, oliy ma'lumotli ayollar uchun deyarli grammatik, leksik, uslubiy xatolarning mavjud emasligi hamda kam sonli imloviy va punktuatsion xatolar kuzatiladi. Ular nutqining semantikaga boyligi, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda oddiy, sodda gaplardan emas, murakkab qo'shma gaplardan foydalanishi bilan farqlanadi. Ma'lumotga ega bo'lmagan ayollar nutqida esa, asosan sodda uslubdagi gaplardan foydalanish, nutqida biroz g'alizlikka yo'l qo'yishi, so'zlarni xato talaffuz etish holatlari, badiiylilikdan xoli bo'lgan nutq usublaridan foydalanishini kuzatish mumkin.

– *Ana syurpriz-u, mana syurpriz! Ana kir yuvadurg'on moshina-yu, mana dilbizor. Agar shu syurpriz bo'lsa, bunday syurpriz bizning uyda bo'lmaydi!*

Muhokama.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ayollar nutqida ularning yoshi jihatini ham inobatga olish darkor. Hozirgi kunda urf bo'lgan "yoshlar tili" katta yoshdagi ayollar nutqidan tubdan farqlanadi. Ularning nutqida adabiy til me'yorlariga, imloviy qabul qilingan normalar (orfografiya)ga, punktuatsion belgilarning to'g'ri va o'z o'rnida ishlatilishiga e'tibor berilmaslik hollari uchrab turadi. Dialektik so'zlar, jargonlar, chetdan kirib kelgan so'zlardan foydalanishda erkinliklari ko'zga tashlanadi. Lekin, katta yoshdagi ayollar nutqiga e'tibor berilsa, ularning yuqorida aytib o'tilgan xatolardan holi, jumalarning soddaligi, qisqa va lo'ndaligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, katta yoshli ayollar nutqida "xalq tili'dan foydalanish holatlari mavjud. Masalan, "aylanay", "o'rgilay", "girgitton", "qoqindiq", "yopiray" kabi leksemalarni kuzatish mumkin. Aksincha, yosh ayol-qizlar nutqida bunday holat kamdan-kam holatlarda asosan, kesatliq ma'nosida ifodalanadi. Ular nutqida "karoche", "zato", "tak-chto" kabi so'zlarni kuzatish mumkin.

– Ula, man aytgande bulib chiqmadi! Tak-chto, mani didimga mos kelmaskan. O'z vaqtida munosabatlani to'xtatiymikin?!

– Yaxshi o'tiribsizmi, poshsho oyi?

– Shukur aylanay. O'g'lingizdan xabar bormi?

Yuqoridagi misolda ko'rinib turganidek "shukur, aylanay" so'zlari yoshi ulug' ayollar nutqiga xos bo'lsa, varvar so'zlardan, so'zlarni chala talaffuz etish, qabul qilingan adabiy til bormasidan uzoqlashish yoshlar nutqiga monand ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Natija.

Ayollar nutqiga bundan tashqari ularning yashash hududi, sharoiti kabi omillar ham bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi. Xususan, G'arb ayollari va Sharq ayollarining nutqi tahlil etilganda, ushbu farqni yaqqol kuzatish mumkin. G'arb ayollari suhbatdoshi bilan qisqa, lo'nda va keskin tarzda, o'z hoxish istaklarini ochiqchasiga ifoda etishga moyil bo'lsa, Sharq ayollariga muloyimlik, kattalarga hurmat, shirinsuxanlik, hayo andisha, hamiyatlikning yuksak darajasi ko'zga tashlanadi. Sharq ayollari nutqida nisbatan bo'ysunuvchanlik xususiyati ko'zga tashlanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi ayol personajlar nutqida ifodalanishini kuzatish mumkin.

Qutidor bir ishka tushungandek ko'zini o'ynatib oldi va so'radi:

- Endi Toshkand bormas emishmi?
- Bilmadim; chinmi, chin emasmi, haytovur qizingizdan eshitkandek bo'lg'an edim.
- So'zlarimni uqdingmi? – dedi Mirzakarim qutidor.
- Uqdim, uqdim – javob qaytardi Oftob oyim.

Yuqoridagi misolda ko'rinib turganidek, Oftob oyim nutqida turmush o'rtog'iga nisbatan bo'ysunuvchanlik, itoatkorlik belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Biroq, ushbu asarda O'zbek oyim personaji tamomila boshqacha bir tusda tasvirlanganki, bu ayol obrazi orqali biz ayollarning jamiyatda va oilada tutgan o'rni, dunyoqarashi nutqiga ta'sir etmasdan qolmasligini guvohi bo'lamiz.

"O'zbek oyim ellik besh yoshlar chamaliq, chaladumbul tabi'atlik bir xotin bo'lsada, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi nafaqat erigagina emas, Toshkand xotinlarig'a ham om edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to'ylarda, a'zalarda, qisqasi, yoq etgan yig'inlardag'i uylarining to'rini O'zbek oyimga atag'an edi" – deb ta'riflanadi asarda.

Xasanalidan bu gapni eshitkan O'zbek oyim chidab turolmadi: "Endi menga mundoq o'g'ul kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim... Endi Toshkandga kelmasin, ul o'zboshimcha, betiyuq!".

Berilgan misollardan O'zbek oyim obrazini muallif mohirlik bilan uning nutqi orqali ochib berganligini guvohi bo'lamiz.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, ayollar nutqining o'ziga xos jihatlari hayotning turli vaziyatlari va holatlarida namoyon bo'lishi, erkaklar nutqidan va o'zi mansub bo'lgan gender vakillarining nutqidan ham ba'zi hollarda farqlanishi kuzatiladi. Bu jihatdan, ularning yoshi, yashash tarzi, ma'lumoti kabi farqlarni kuzatishimiz mumkin.

Ayollar nutqini tahlil etish asnosida, ularning yashash hududi Sharq va G'arb ayollari nutqining bir biridan farqi, ishlatiladigan so'zlari, o'zlarini tutishlaridan tortib ular kiyadigan liboslarigacha bir birlaridan farqlanishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ayollar nutqining yosh jihatdan farqlanishini tahlil etadigan bo'lsak, ulardagi hayot tajribasining bu o'rinda nechog'lik katta ahamiyat kasb etishini anglaymiz. Hayoti davomida, uning past-u balandlari, chig'iriqlaridan o'tgan ayol bilan, endigina 18 yoki 20 bahorni qarshi olgan qizning dunyoqarashi, fikrlashi, nutqi va unda qo'llanuvchi so'zlar, ishlatiladigan lug'at tarkibining yer-u osmoncha farqi bor.

Qayd etilgan tahlillardan shu xulosaga kelish mumkinki, ayollar, ularning nutqi, so'zlashish madaniyati kabi xususiyatlari juda ham keng qamrovli bo'lib, ular ustida alohida izlanishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raximberganova Dinora "Ayollar nutqida genderologik xususiyatlarning aks etishi"
2. "Mahallada duv-duv gap" filmi
3. www.telegram.org
4. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" 'Kaltakesakning dumi' hikoyasi
5. S.Mo'minov "So'zlashish san'ati". Farg'ona nashriyoti 1997.
6. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" B – 72 – 80.